



**Ilmiy amaliy
jurnal
№ 4 (6)
2026**

**YANGI
O'ZBEKISTON
IQTISODIYOTI**

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 4-son 2026 yil

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI

4

ISBN 978-9943-5256-3-4

Toshkent – 2026

MUNDARIJA

Юлдашев Ш.Г. Конвергенция и поляризация развитых и развивающихся стран в эпоху развития искусственного интеллекта.....	8
Mamatov B.S. Foreign investment is an important factor of economic growth.....	15
Raximova K.N. Raqamli iqtisodiyot sharoitida telekommunikatsiya kompaniyasining rivojlanish tendensiyasi.....	22
Karimov Sh.X. Turizmni barqaror rivojlantirishda hududiy boshqaruv omillarining ahamiyati.....	26
Raximov D.Sh. To‘qimachilik sanoatida diversifikatsiya darajasi va iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlari tahlili.....	30
Rashidova K. Asalarichilik mahsulotlari bozorida marketing faoliyati samaradorligini oshirish.....	32
Хакимов Д.Р. Процессы, возможности и ограничения экономической интеграции между Республикой Узбекистан и Китайской Народной Республикой.....	37
Olimjanova Sh.O., Eshonqulov I.N. O‘zbekistonda agrar munosabatlarni takomillashtirishda resurs tejankor texnologiyalarni joriy etish masalalari.....	42
Valikulov Sh.Z. O‘zbekistonda neft-gaz sanoatiga investitsiyalarni jalb qilishning institutsional muammolari va yechimlari.....	48
Ganieva L.S. Bojxona xizmatlari samaradorligini oshirishning nazariy asoslari.....	52
Axrorova N.U. Turizm xizmatlaridan tajriba iqtisodiyotiga o‘tish: evolyutsion tahlil.....	56
Kamilova A.N. Sanoat ishlab chiqarish korxonasida mehnatni normalashtirish menejmentini tashkil etish va takomillashtirish yo‘llari.....	61
Umurzakova Z.S. Sanoat korxonalarida ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanishni takomillashtirish chora-tadbirlari.....	66
Abdiyeva D.K. Priority directions for improving the national logistics policy in Uzbekistan.....	69
Xalimova N.J. Kreativ turizm: nazariy asoslar va ta’riflar qiyosiy tahlili.....	74
Maxramova N.Y. Strategik menejmentda qadriyatlar zanjiri: raqobatbardoshlikni oshirishning konseptual asoslari.....	78
Zaxirova G., Shavkatova N.O’. O‘zbekistonda turizmni rivojlantirish masalalari.....	82
Maxmudov H., Muxtarova G., Maxmudov H. Ekologik muommolar va ularning mamlakat iqtisodiyotga ta’siri.....	86
Umurzakova M.N., Gulahmadov Sh.A. Davlat ichki va tashqi qarzlarning ijobiy va salbiy jihatlar tahlili.....	89
Xasanov I.M. O‘zbekistonda mulkchilik munosabatlarning transformatsiyasi: tadbirkorlikni rivojlantirish omili sifatida.....	94
Abdullayev M.G’. Personalni boshqarish tizimining ilmiy-nazariy asoslari va uning korxona samaradorligiga ta’siri.....	101
Адилов Б.Б., Абдуллаева М.К. Ўзбекистонда саноат корхоналарини ривожлантириш, тенденциялари.....	105
Абдуғаниев Ё.Ж. Яшил иқтисодиёт - барқарор ривожланиш мақсадларининг янги парадигмаси сифатида.....	112
Xusanboyeva T.M. Talabalarning iqtisodiy tafakkurini shakllantirishda to‘garaklarning o‘rni va ahamiyati.....	116
Xashimova S.N. O‘zbekiston milliy yashil taksonomiyasi mohiyati va ahamiyati.....	120
Mitillayev I.T. Tijorat banklarida kredit risklarini baholashda zamonaviy scoring modellari va ularning samaradorligini oshirish yo‘llari.....	124
Бобоқулова М.Ғ. Инвестиция муҳити ва Ўзбекистондаги инвестиция жараёнларининг динамикаси.....	127
Bekberganova M.R. “O‘zbekistonda sug‘urta kompaniyalari tushumlarining ekonometrik tahlili”.....	134
Рахимова М.Ш. Модернизация системы социальной защиты.....	138
Oqboyev A.R. Tadbirkorlik subyektlari eksport salohiyatini xalqaro standartlar asosida oshirish yo‘llari....	142
Djumanova R.F. Aholi turmush sifatini baholashning metodologik yondoshuvlari.....	147
Mamatov B.S., Umurzakova M.N. Davlat tibbiy sug‘urta tizimida bepul xizmatlar, reimbursasiya va foydalanish shartlari.....	154
Ешимбетов У.Х. Қишлоқ хўжалигини ҳудудий ташкил этиш ва иқтисослаштиришнинг илмий асослари.....	158
Xodjaeva F.K. Sanoat ishlab chiqarishini tartibga solishning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish....	167
Yusupova M. Hududlarda ayollar va yoshlar tadbirkorligini rivojlantirishda institutsional qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish.....	171
Abduxalilov B.Z. O‘zbekistonda IT provayderlar xizmatlari raqobatbardoshligini oshirish: huquqiy va institutsional asoslar.....	175
Abdisamatov A.A. Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishning nazariy asoslari.....	178

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 4-son 2026 yil

Abdusalomov I.J. Korxonalarda chiqindilarni boshqarish tizimini takomillashtirish va uning moliyaviy natijalarga ta'siri.....	182
Amirov L.F., Sokhibjonova S.S. Directions for increasing agricultural product exports in the context of a green economy.....	185
Boltaxo'jayeva I.O'. Ways to improve the enterprise management system based on modern management models.....	191
Dehqonov U.M., Sativaldiyeva G. Korxonalarda bo'nak to'lovlari hisobining moliyaviy hisobotga ta'siri va ularni optimallashtirish bo'yicha tahliliy yondashuvlar.....	195
Isoqova M.A. O'zbekistonda yashil energiyadan foydalangan holda kichik biznesni rivojlantirishning institutsional va moliyaviy mexanizmlari.....	199
Mamadaliyev B., Teshaboyev J. Korxonalarda mehnatga haq to'lash hisobini avtomatlashtirish va audit samaradorligini oshirish yo'llari.....	202
Poziljonov M., Teshaboyev X. Davlat muassasalarida asosiy vositalarning hisobini takomillashtirish va ulardan foydalanish samaradorligini oshirish.....	206
Rustamova F.A. Qishloq hududlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining iqtisodiy samaradorligini oshirishda innovatsion yondashuvlarning roli.....	209
Tursunboyev Q.O. Transport xizmatlari ko'rsatish sohasida kichik tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishning xorijiy tajribalari.....	213
Umarov T.S. Hududlarda qurilish korxonalarini faoliyatini samarali tashkil etishni ekonometrik modellash va prognozlash.....	216
Xo'jaliyev A.O., Avilov N. Moliyaviy natijalar hisobi va auditda raqamli texnologiyalardan foydalanish samaradorligi.....	220
Xomidov T.T., Arziboyeva R.S. Bank aktivlarining tarkibi va ularni boshqarish omillari.....	223
Xusainov M. Sanoat korxonalarida mahsulot tannaxsini kalkulyatsiya qilish tizimini takomillashtirishning metodologik asoslari va audit mexanizmlarini rivojlantirish.....	227
Begaliyeva M.A., Egamshukurova N.R. Jahon savdo tizimi va milliy iqtisodiyot uchun uning ahamiyati..	231
Gulimboyev S.I. Korxonalarda moliyaviy resurslar taqsimotining zamonaviy usullari.....	235
Ibodov J.Q. Moliyaviy tizimning xizmatlar sohalari va bo'g'inlari.....	239
Jumabayeva K.B. Xalqaro pensiya tizimi modellari va ularning mintaqaviy tamoyillari.....	243
Khusanova Z.R., Yo'ldasheva Z.U. Global trends in the development of international tourism services....	249
Sadullayev M.D. Sanoat korxonalari innovatsion faoliyatini boshqarish.....	252
Tilabov N.T. Davlat qarz siyosatini samarali boshqarish strategiyasini takomillashtirish.....	256
Toshtemirov Y.N. O'zbekistonda logistik faoliyatni rivojlantirishning hozirgi darajasi.....	264
Toshtemirova Z.M. Mahalla institutining iqtisodiy integratsiya jarayonlaridagi strategik ahamiyati.....	268
Uralov E.O. Surxondaryo viloyati xududida sanoatni shakllanishi va rivojlanishi.....	273
Xursanova F.Sh. Budjetlararo munosabatlarning iqtisodiy mazmuni.....	278
Yuldasheva G.A. Investitsion qarorlarni kabul qilishda moliyaviy tahlilning ahamiyati va roli	282
Абдуллаева Р. Тadbirkorlikning zamonaviy kuryentlari.....	287
Юлдашев А. Фаргона вилояти маҳаллаларида инвестиция фаоллигини оширишнинг институционал асослари	292
Abdumalikova Z., Razakova B.S. O'zbekiston sug'urta bozorini moliyaviy texnologiyalar (insurtech) asosida rivojlantirish: imkoniyatlar va yo'nalishlar.....	294
Azimov B.F. Milliy innovatsion tizimni boshqarishda tashkiliy-institutsional va moliyaviy-iqtisodiy mexanizmlarning roli.....	300
Begaliyeva M.A. Raqamli iqtisodiyot sharoitida oliy ta'lim tizimida sifat menejmentini samarali joriy etishning ahamiyati.....	304
Dawletmuratov A.M. Xizmatlar bozorini rivojlantirish orqali bandlikni oshirish va daromadlarni ko'paytirish mexanizmlari.....	308
Karimova L.S., Jabborov A.A. O'zbekistonda raqamli iqtisodiyot: holati, muammolar va rivojlanish istiqbollari.....	313
Maxmudov F.U. Oliy ta'lim muassasalarida moslashuvchan marketing strategiyalarini ishlab chiqish mexanizmlari.....	319
Navruz-zoda L.B. Kichik biznes subyektlarining kadrlar salohiyati va bilim infratuzilmasiga bo'lgan talablari: Buxoro viloyati misolida.....	323
Nishonboyev D.E., Abdumalikov S.T. Chorvachilik tarmog'ini innovatsion boshqaruv asosida rivojlantirish istiqbollari.....	327

Nurmirezayeva N.R. Valyuta kursi o‘zgarishining eksport-importga ta’siri: O‘zbekiston misolida amaliy baholash.....	331
Rahimov A.M. Hududiy iqtisodiyotni rivojlantirishda qayta ishlash sanoatini rivojlantirishning samarali mexanizmlarini takomillashtirish.....	335
Ibragimova G.S. Ta’lim sifatini baholashning xalqaro tajribasi va uni joriy etish.....	339
Ravshanova M.M. Hududiy iqtisodiy salohiyatni baholashda zamonaviy raqamli texnologiyalardan foydalanish va ularning elektron tijorat tizimidagi o‘rni.....	343
Ro‘ziboyeva M. O‘zbekistonda ishchi kuchi migratsiyasi va iqtisodiy o‘sish darajasining o‘zgarish dinamikasi.....	347
Saidova F.K., O‘rozov Sh. Korporativ ijtimoiy mas’uliyat (CSR) va yashil iqtisodiyot: logistika sektorida boshqaruv strategiyalari.....	350
Sultonov S.N. Hududlarda klasterlarini investitsion - innovatsion rivojlantirish istiqbollari (Qashqadaryo viloyati misolida).....	354
Sultonova D.U. Korxona iqtisodiyotida resurslarni boshqarishning raqamli-integratsiyalashgan modelini takomillashtirish.....	358
To‘raxojayev H.H., Hoshimov P.Z. Islomiy banklarning ishlash tamoyili va islom moliya tizimining O‘zbekiston iqtisodiyotiga tadbiqu.....	362
Tursunova N.U. Bridging the innovation gap: development-focused entrepreneurship support and international intermediaries.....	368
Акрамова Г.А. «Роль женщин-ученых в совершенствовании механизмов коммерциализации ремесленных услуг Узбекистана в условиях цифровой экономики».....	374
Болтаев Ж.А. Трансформация банковского сектора в условиях цифровизации мировой экономики..	379
Жунайдуллаев М.А. Жанубий Кореяда рақамли таълим технологиялари орқали индивидуал спортчиларини тайёрлаш тизимини бошқаришнинг миллий хусусиятлари.....	384
Митрушова М.Л. Интеллектуальный капитал как ключевой фактор инновационного развития предприятия.....	388
Муродов О.У. Барқарор ривожланиш тушунчаси ва унинг иқтисодий, ижтимоий ҳамда экологик мезонлари.....	392
Саидова Г., Ибрагимова К., Қурбонов А. Рақамли трансформация шароитида енгил саноат корхоналари маҳсулотларининг халқаро рақобатбардошлигини ошириш стратегиялари.....	396
Sarkarov S.Z. O‘zbekistonda qurilish sohasining texnologik bisqichlar kesimida rivojlanishi.....	401
Minojiddinova N.M. Aksiyadorlik jamiyati korxonalarida xodimlarni samarali boshqarishda raqamli texnologiyalardan foydalanish istiqbollari.....	406
Ruzmetova I.Y. Xorazm viloyati iqtisodiyotida kichik biznesning o‘rni.....	410
Qudratov D., Ismoilov A. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning tarmoqlar rivojidadagi o‘rni.....	414
Qodirov H.D. Soliq ma’muriyatchiligini takomillashtirish orqali davlat byudjeti daromadlarini barqaror oshirish yo‘llari.....	417
Kinjayev K.N. Banklarda kreditlar tasnifini yaxshilash orqali rentabellikni ta’minlash yo‘llari.....	421
Макушина А.Ю. Государственная поддержка экспортного потенциала субъектов малого предпринимательства в Республике Узбекистан.....	424
Rejapov X.X., Oxunjonova K.K. Ixtisoslashtirilgan savdo majmualarini moliyaviy resurslarini shakllantirish va ishlatish yo‘nalishlari – Bek Baraka savdo majmuasi misolida.....	430
Махкамова Н.С. Роль государственно-частных партнерств (ГЧП) в продвижении устойчивого развития	434
Avilov N., Muhammadova G. Korxonalarda materiallar harakatining auditi va iqtisodiy tahlili.....	441
Abdullayeva R.G., Raxmonova I.S. O‘zbekiston qishloq hududlarida bandlikni ta’minlash holati va rivojlanish tendensiyalari.....	444
Yusupova M.B. Ustama ishlab chiqarish xarajatlarini taqsimlashning ABC usuli.....	447
Toshpo‘latov M.A. Ta’lim loyihalarida moliyaviy mablag‘lardan samarali foydalanishning xususiyatlari...	452
Hamidova Sh., Ahmadaliyeva H. Kapital qo‘yilmalarning samaradorlik tahlili.....	458
Хамракулов С.М. Собственный капитал в функционировании экономических субъектов Республики Узбекистан.....	461
Zayavitdinova N.M. Raqamli platformalar asosida xizmat ko‘rsatish korxonalarida boshqaruv samaradorligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari.....	465
Turg‘unov T.S. O‘zbekistonda aholi turmush darajasini statistik taxlil qilishning ahamiyati.....	469
Ботирова З.Қ. Рақамли иқтисодиёт шароитида даромадларни бошқаришнинг хусусиятлари....	475
Бегимова Н.К. Меҳнат бозорида гендер тафовутларининг келиб чиқиш сабаблари.....	481

4. Reinhart C. M., Rogoff K. S. Growth in a Time of Debt // American Economic Review. — 2010. — Vol. 100, No. 2. — P. 573–578.
5. Reinhart C. M., Rogoff K. S. This time is different: Eight centuries of financial folly. – princeton university press, 2009.
6. Keynes J. M. The general theory of employment // The quarterly journal of economics. – 1937. – T. 51. – No. 2. – C. 209-223.
7. O.S. Komolov, X.X. Imomov. Davlat qarzlarini boshqarish. (Darslik). – T.: “Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi”, 2022. – 8-bet.
8. A.A. Shernaev, O.S. Komolov. “Davlat qarzlarini boshqarish” (Darslik). – T.: Iqtisod-moliya, 2019. – 12-bet.
9. D.X. Suyunov, E.A. Xoshimov. Korporativ boshqaruv: muammolar va zamonaviy yechimlar. Monografiya. – 218 b., 2018.

УДК: 330.342:334.012(575.1)

**O‘ZBEKISTONDA MULKCHILIK MUNOSABATLARINING TRANSFORMATSIYASI:
TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH OMILI SIFATIDA**

**ТРАНСФОРМАЦИЯ ОТНОШЕНИЙ СОБСТВЕННОСТИ В УЗБЕКИСТАНЕ: КАК
ФАКТОР РАЗВИТИЯ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА**

**TRANSFORMATION OF OWNERSHIP RELATIONS IN UZBEKISTAN: AS A FACTOR
IN THE DEVELOPMENT OF ENTREPRENEURSHIP**

Xasanov Ilyos Mahmudovich

Oziq-ovqat texnologiyalari va muhandisligi xalqaro instituti
Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Annotatsiya

Ushbu maqolada mulkchilik munosabatlarining transformatsiyasi jarayonlarini tahlil qilish hamda uning kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishdagi o'rnini tadqiq etildi. Tadqiqot jarayonida mulkchilik tarkibining iqtisodiy samaradorligi, xususiylashtirish va investitsion jozibadorlik dinamikasi, hududlar kesimida faol kichik korxona va mikrofirmalar soni hamda kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi qiyosiy va statistik tahlil qilindi.

Kalit so'zlar: iqtisodiy samaradorligi, mulkchilik munosabatlari, mulk shakllari, transformatsiya, tadbirkorlik faoliyati, xususiylashtirish.

В данной статье анализируются процессы трансформации имущественных отношений и их роль в развитии малого бизнеса и частного предпринимательства. В ходе исследования проведен сравнительный и статистический анализ экономической эффективности структуры собственности, динамики приватизации и инвестиционной привлекательности, количества действующих малых предприятий и микропредприятий по регионам, а также динамики основных показателей малого предпринимательства.

Ключевые слова: экономическая эффективность, отношения собственности, формы собственности, трансформация, предпринимательская деятельность, приватизация.

This article analyzes the processes of transformation of ownership relations and their role in the development of small business and private entrepreneurship. In the course of the research, a comparative and statistical analysis of the economic efficiency of the ownership structure, the dynamics of privatization and investment attractiveness, the number of active small enterprises and

microfirms by region, and the dynamics of the main indicators of small entrepreneurship were carried out.

Keywords: economic efficiency, ownership relations, forms of ownership, transformation, entrepreneurial activity, privatization.

O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligiga erishgach, mamlakat hayotida ishlab chiqarish kuchlarini yanada rivojlantirish, fan-texnika taraqqiyotini jadallashtirish, aholining turmush tarzini yaxshilashga qaratilgan ulkan ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar ro‘y berdi va innovatsion taraqqiyot davom etmoqda. Bu kabi o‘zgarishlarni amalga oshirilishiga mamlakat iqtisodiyotiga kiritilgan yangi investitsiyalar va mavjud texnologik bazani modernizatsiya qilishdan tashqari boshqaruvning zamonaviy samarali tamoyillarini joriy etish, iqtisodiyot subyektlarining xo‘jalik faoliyati bilan bog‘liq mustaqillik doirasini kengaytirish, siyosatning iqtisodiyotdan ustunligiga barham berish, inson faoliyatining barcha soha va tarmoqlarida tashabbuskorlik, izlanish, boshqaruvda yetakchilik salohiyatini kengaytirish, bu boradagi zamonaviy konsepsiyalarni yaratish va shu kabilarning amalga oshirilishi o‘ziga xos bo‘lgan asoslar yaratmoqda. Keng miqyosda mustaqillik berilishi natijasida bozor munosabatlariga o‘tish jarayoni tezlashdi. Bunday sharoitlarda tadbirkorlik faoliyati korxonalari rivojlandi va maqomining sezilarli ravishda o‘zgarishiga sabab bo‘ldi.

Zamonaviy iqtisodiy rivojlanish sharoitida tadbirkorlik faoliyatining samaradorligi bevosita mulkchilik munosabatlarining qay darajada shakllanganligi va mulkni iqtisodiy tacappyf etish mexanizmlarining mukammalligi bilan belgilanadi. O‘zbekiston iqtisodiyotini isloh qilishning bugungi bosqichi mulkchilikning turli shakllarini yanada rivojlantirish, xususiylar sektorni qo‘llab-quvvatlash hamda mulkdorlar qatlamining iqtisodiy mustaqilligini ta‘minlashni taqozo etadi.

Mamlakatimizda bozor iqtisodiyotiga o‘tish jarayonida mulkchilik munosabatlari tubdan o‘zgardi. Konstitutsiyaviy darajada mulkchilikning barcha shakllari teng huquqliligi e‘tirof etilib, davlat mulkining yakka hukmronligiga barham berildi. Biroq, mulkchilik shakllarining xilma-xilligi o‘z-o‘zidan iqtisodiy o‘shishni kafolatlamaydi. Asosiy muammo shundaki, tadbirkorlik subyektlari ixtiyoridagi mulkdan foydalanish samaradorligi, uni kapitalga aylantirish va iqtisodiy tacappyf etish jarayonlarida hali ham ma‘lum bir tashkiliy-iqtisodiy to‘siqlar saqlanib qolmoqda.

Rossiyalik olimlarning adabiyotlarida mulkchilik transformatsiyasiga nisbatan ko‘pincha juda soddalashtirilgan qarash uchraydi, bunda u bir mulk shaklining hukmronligidan ikkinchisiga o‘tish jarayoni deb baholanadi. Bunday o‘ta tor ma‘noda mulkchilik munosabatlarini qayta qurish buyruqbozlik-ma‘muriy tizimdan bozor tizimiga o‘tish jarayoni sifatida qaraladi. Shu nuqtai nazardan, sof "mexanik" muammolar ilgari suriladi: davlat mulkining ulushi qaysi darajagacha pasayishi kerak va bu pasayish qanday sur‘atlarda amalga oshiriladi? Rossiyada mulkchilik transformatsiyasining mohiyati esa faqat bitta mulk shakli hukmronligini yengib o‘tish va uni birini to‘ldiruvchi turli mulk shakllari bilan almashtirishga keltirib qo‘yiladi [5].

Г.В.Ульянов fikriga ko‘ra [6], mulkchilikning uzluksiz transformatsiya jarayonida bir nechta tarkibiy qismlarni aniq ajratib ko‘rsatish mumkin. Birinchidan, bu — global iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning aksi sifatida mulkchilik munosabatlarining evolyutsiyasidir. Ikkinchidan, bu — tizimli transformatsiya yoki tor ma‘nodagi transformatsiyadir. Uchinchidan, tashkiliy o‘zgarishlar jarayonidagi mulkchilik transformatsiyasidir.

Rossiyalik yana bir olim B. B. Котова mulkchilik transformatsiyasi keng ma‘noda — bu turli yo‘nalishdagi tendensiyalar va bir holatdan ikkinchisiga o‘tish, turlicha murakkablikdagi qisqa va uzoq muddatli o‘zgarishlarni hisobga olgan holda uning doimiy o‘zgarish jarayonidir. Bu mulkchilik munosabatlarining tarixiy jihatdan uzluksiz o‘zgarish jarayonidir deb ta‘kidlaydi [4].

O‘zbekistonlik iqtisodchi olimlarning tadqiqotlarida mulkchilik munosabatlarining transformatsiyasi nafaqat mulk shakllarining o‘zgarishi, balki tadbirkorlik muhitini barqaror rivojlantirishning institutsional asosi sifatida baholanadi. A. A. Xamdamiy (2021) [7] o‘z ishlarida mulkchilik shakllarining evolyutsiyasini iqtisodiy o‘shishning asosiy drayveri deb hisoblaydi. Uning fikricha, mulkchilik munosabatlarining transformatsiyasi tadbirkorlik subyektlari uchun qulay institutsional muhitni yaratishda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lib, bu jarayon iqtisodiy erkinlik darajasini belgilab beradi. O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan xususiylashtirish jarayonlarining

o‘ziga xos xususiyatlari – davlat mol-mulkini faqat yangi mulkdorga sotish yo‘li bilan mulkchilikning boshqa shakllariga aylantirish, xususiylashtirishga dasturiy yondashuvni ta‘minlash va uni bosqichma bosqich amalga oshirish, mulkni davlat tasarrufidan chiqarish chog‘ida aholi uchun kuchli ijtimoiy kafolatlarining yaratilganligi va ta‘minlanganligidadir. Bunga ko‘ra yangi mulkdorga eskirgan asosiy fondlar tekinga berildi, mehnat jamoasi xodimlari xususiylashtirilayotgan korxona aksiyalarini imtiyozli shartlar bilan sotib olish imkoniga ega bo‘lishdi, deb ta‘kidlaydi D. P.Bozorboyev [2].

Mulkchilik va boshqaruv samaradorligi o‘rtasidagi bog‘liqlikni N. K. Ismailova (2023) [3] tadqiqotida mulkdor va boshqaruvchi (menejer) o‘rtasidagi munosabatlar tahlil qilinib, korporativ boshqaruvning sifat darajasi tadbirkorlik subyektlarining rivojlanishiga bevosita ta‘sir ko‘rsatishini isbotlab korporativ boshqaruv nuqtai nazaridan yoritib beradi.

Abduraxmonov A.S. (2022) o‘z tadqiqotlarida O‘zbekistonda mulkchilik transformatsiyasining amaliy mexanizmlari sifatida xususiy mulk davlat mulkini xususiylashtirish, uni hosil etishga ruxsat berilishi natijasida yuzaga keldi va xususiy korxonalar, fermer va dehqon xo‘jaliklari, xususiy banklar, tomorqa, xonadondagi mol-mulk va pul jamg‘armalari, qimmatli qog‘ozlar xususiy mulk obyektiga aylanganligini ko‘rsatib o‘tadi hamda xususiylashtirish jarayonlarini mulkchilik shakllarining transformatsiyasi sifatida tahlil qiladi.

Po‘latov X. U., Tojiboyev J. Z. (2022) [1] davlatga tegishli mol – mulk, yer, va shunga o‘xshash moddiy ne‘matlarni xususiylashtirish va ularni davlat tasarrufidan chiqarishning davlat, jamiyat va buxgalteriya hisobiga ko‘rsatadigan ta‘siri va ahamiyatini yoritadi. Tursunovga ko‘ra, davlat mulkini xususiylashtirish faqat "mexanik" jarayon bo‘lmay, balki aktivlardan foydalanish samaradorligini oshirishga yo‘naltirilgan tashkiliy-iqtisodiy mexanizm bo‘lishi kerak.

Mulkchilik munosabatlarining transformatsiyasi bo‘yicha olib borilgan adabiyotlar tahlili, bu jarayon iqtisodiy rivojlanishning eng murakkab va fundamental bosqichlaridan biri ekanligi, hamda mulkchilik transformatsiyasi muvaffaqiyatli bo‘lishi uchun institutsional himoya, boshqaruv samaradorligi, tashkiliy modernizatsiya kabi uchta omil majmuaviy tarzda amalga oshirilishi shartligini ko‘rsatadi. Shuningdek, mulkchilik munosabatlarining transformatsiyasi — bu iqtisodiyotni "eski" qoliplardan "yangi" bozor mexanizmlariga o‘tkazishning uzluksiz jarayoni bo‘lib, u tadbirkorlikni rivojlantirishning asosiy omili ekanligini namoyon etdi.

Tadbirkorlik faoliyatining yanada rivojlanishi jamiyatning iqtisodiy tizimiga bog‘liqdir. Har qanday jamiyatning iqtisodiy tizimi mulkchilikdan boshlanadi. Hamisha avlodlar mehnati yaratgan va tabiat in‘om etgan boyliklar mulk bo‘lib kelgan. Mulkiy munosabatlarga asoslanmagan iqtisodiyot bo‘lishi mumkin emas. Ishlab chiqarish resurslari bironta mulk bo‘lib harakatga keladi. Yaratilgan mahsulotlar ham muayyan mulk doirasida o‘zlashtiriladi.

Iqtisodiyot rivojlanishida mulkchilik munosabatlarining katta ahamiyati bor. Chunki, boshqaruv faoliyati mulk doirasida amalga oshiriladi. Pul va u bilan bog‘liq bo‘lgan resurslar mavjud bo‘lgan sharoitda boshqaruv samarasi to‘g‘risida o‘ylash mumkin. Bu resurslarning mavjud bo‘lishi masalaning bir tomoni bo‘lsa, ikkinchi tomoni u bilan bog‘liq bo‘lgan munosabatlardir, mulkchilik munosabatlardir. Mulkchilik munosabatlari — jamiyatdagi boyliklarni o‘zlashtirish xususidagi iqtisodiy munosabatlardir. Mulkchilik munosabatlarining transformatsiyasi O‘zbekiston iqtisodiyotida tadbirkorlikni rivojlantirishning asosiy omili sifatida namoyon bo‘lmoqda. Mulkchilik tarkibidagi o‘zgarishlar va tadbirkorlik ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik mavjud bo‘lib, uni mulkchilik tarkibi va iqtisodiy samaradorlik, xususiylashtirish va investitsion jozibadorlik dinamikasi, hududlar kesimida tadbirkorlik faolligi, kichik tadbirkorlikning asosiy ko‘rsatkichlari dinamikasi ochib beradi.

Mulkchilik tarkibining davlat tasarrufidan xususiy mulk foydasiga o‘zgarishi korxonalar iqtisodiy samaradorligini oshirishning asosiy drayveri hisoblanadi.

Jadval ma‘lumotlari 2020–2025 yillarda xususiy sektorning YaIMdagi ulushi 54 %dan 62 %gacha o‘sishi, mamlakatda "kapitalning xususiylashuvi" jarayoni izchil davom etayotganini ko‘rsatadi. Bu – davlatning iqtisodiyotdagi bevosita ishtirokini qisqartirib, bozor mexanizmlariga o‘tishning institutsional tasdig‘idir. Sanoat mahsulotlari hajmidagi xususiy sektor ulushining 11,8 foiz punktga (50,2 % dan 62,0 % gacha) o‘sishi, xususiy mulkdorlarning xomashyoni qayta ishlash va qo‘shilgan qiymat zanjiriga faol kirib borayotganini anglatadi.

Mulkchilik tarkibining iqtisodiy samaradorligi

Yil	YaIMda xususiy sektor ulushi (%)	Sanoatda xususiy sektor ulushi (%)	Bandlikda xususiy sektor ulushi (%)
2020	54.0	50.2	74.5
2021	55.5	52.8	74.5
2022	57.0	55.4	73.9
2023	58.5	57.1	74.0
2024	60.0	59.5	74.5
2025*	62.0	62.0	75.0

Bu jarayon "sanoat mulkdorligi" (industrial ownership) konsepsiyasini kuchaytiradi. Bandlikda xususiy sektorning 74–75 % lik ulushi uning "ijtimoiy stabilizator" sifatidagi rolini belgilaydi. Bu yerda qiziqarli paradoks kuzatiladi: YaIM va sanoatda xususiy sektorning ulushi keskin o‘sayotgan bo‘lsa-da, bandlikdagi ulush barqaror (74–75 %). Bu shuni anglatadiki, xususiy sektor bandlikni miqdoriy jihatdan emas, balki sifat jihatidan (mehnat unumdorligi oshishi hisobiga) rivojlantirmoqda (1-jadval) [8].

Xususiylashtirish jarayonlari faqat aktivlarni sotish emas, balki ularni yangi investitsion bosqichga olib chiqish mexanizmi sifatida namoyon bo‘lmoqda. Tahlil qilingan davr mobaynida xususiylashtirilgan obyektlarga yo‘naltirilgan investitsiyalar hajmining o‘shishi, ushbu tarmoqlarda tadbirkorlik faolligini 20–25% ga oshirgan. Bu esa mulkchilik transformatsiyasining investitsion jozibadorlikni oshirishdagi katalizatorlik rolini tasdiqlaydi.

2020–2024 yillarda sotilgan davlat obyektlari sonining qariyb 2,8 barobar o‘shishi, davlatning iqtisodiyotdagi "mulkdorlik" funksiyasidan "regulyatorlik" funksiyasiga o‘tayotganini anglatadi. Bu jarayon "Aktivlar regeneratsiyasi" deb atalib, davlat balansida samarasiz turgan aktivlarning xususiy mulkdorlar qo‘liga o‘tishi, ularning qiymatini real iqtisodiy aylanmaga kiritish imkonini bermoqda. Asosiy kapitalga investitsiyalardagi xususiy mulk ulushining 48,2 % dan 54,3 % gacha o‘shishi – mulkchilik munosabatlarining "kapital sig‘imli" tus olayotganidan dalolat beradi. Mulk endilikda shunchaki "aktiv" emas, balki yangi qiymat yaratuvchi "kapital"ga aylanmoqda. Bu – mulkdorlarning uzoq muddatli investitsion ishonchi ortganini ko‘rsatadi. Har 1000 aholiga to‘g‘ri keladigan korxonalar sonining 12,4 dan 15,2 gacha o‘shishi – jamiyatda "tadbirkorlik madaniyati" va xususiy mulkchilikka bo‘lgan munosabatning ijobiy tomonga o‘zgarganini anglatadi. Bu ko‘rsatkich qanchalik yuqori bo‘lsa, iqtisodiyotning "mulkiy atomizatsiyasi" (mulkning keng qatlamlar o‘rtasida taqsimlanishi) shunchalik yuqori bo‘ladi (2-jadval) [8].


2-jadval

Xususiylashtirish va investitsion jozibadorlik dinamikasi

Yil	Sotilgan davlat obyektlari (dona)	Investitsiyalarda xususiy mulk ulushi (%)	Har 1000 aholiga to‘g‘ri keladigan korxonalar (dona)
2020	850	48.2	12.4
2021	1240	49.7	13.8

Yil	Sotilgan davlat obyektlari (dona)	Investitsiyalarda xususiy mulk ulushi (%)	Har 1000 aholiga to‘g‘ri keladigan korxonalar (dona)
2022	1860	51.1	14.5
2023	2150	54.1	14.8
2024	2400	54.3	15.2

O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan mulkchilik munosabatlarini erkinlashtirish siyosati kichik biznes subyektlarining investitsion salohiyatini tubdan o‘zgartirdi. 2021–2025 yillar (yanvar–sentyabr) davridagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, kichik biznes nafaqat xizmat ko‘rsatuvchi, balki kapitalni shakllantiruvchi asosiy subyektga aylanib borayotganligini ko‘rsatmoqda.



1-rasm. Kichik tadbirkorlik asosiy ko‘rsatkichlari dinamikasi

Asosiy kapitalga investitsiyalar hajmining 2021-yildagi 80,6 trln. so‘mdan 2025-yilda 270,1 trln. so‘mga yetishi, mulkchilikning xususiy shakliga o‘tish jarayoni samarali kechayotganini tasdiqlaydi. Ayniqsa, investitsiyalardagi ulushning 49,7 % dan 60,9 % gacha o‘shishi – kichik biznesning "investitsion mustaqilligi" oshganidan dalolat beradi. Bu – mulkdorlar o‘z mablag‘larini ishlab chiqarish vositalariga (uskunalar, texnologiyalar) qayta investitsiya qilishga tayyor ekanliklarini anglatadi. Sanoat mahsulotlari hajmining 3,1 barobar (81,5 dan 258,5 trln. so‘mgacha) o‘shishi, kichik biznesning xomashyodan yuqori qo‘shilgan qiymatga o‘tish zanjiriga kirib borayotganini ko‘rsatadi. Qurilish sektoridagi 355,7 trln so‘mlik ko‘rsatkich esa infratuzilmaviy mulkchilikni rivojlantirishda kichik korxonalarning asosiy ijrochi ekanligini tasdiqlaydi. Investitsiyalardagi ulushning 60,9 % ga yetishi shuni anglatadiki, mamlakat iqtisodiyoti endilikda "davlat kapitali"ga emas, balki "xususiy kapital" (kichik biznes) harakati va tashabbusiga tayanmoqda. Bu – mulkchilik munosabatlaridagi institutsional transformatsiyaning yakuniy bosqichi – xususiy mulkning iqtisodiy o‘shishdagi dominantligidir.

Kichik biznesning investitsion faolligi va ishlab chiqarish hajmlarining barqaror o‘shishi mulkchilik munosabatlarining transformatsiyasi nafaqat huquqiy, balki real iqtisodiy instrumentga aylanganini ko‘rsatadi. Investitsiyalarning 60 % dan ortig‘i kichik sektorga to‘g‘ri kelishi – resurslarning xususiy mulkdorlar qo‘lida samarali konsentratsiyalashayotganidan dalolat beradi.

O‘zbekistonda mulkchilik munosabatlarining transformatsiyasi hududlar kesimida notekis kechayotganligi kuzatilmoqda. 2024-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra, faol kichik biznes subyektlarining hududiy taqsimoti "iqtisodiy qutblanish" jarayonini yaqqol namoyon etadi (3-jadval) [8].

Toshkent shahrida 87,5 mingta subyektning jamlanishi, mulkchilik munosabatlarining rivojlanishi bevosita aglomeratsiya effektiga (infratuzilma, moliyaviy oqimlar va yuqori bozor sig‘imi) bog‘liq ekanligini ko‘rsatadi. Bu – mulkdorlar o‘z aktivlarini xavf-xatar kam bo‘lgan va kapital aylanishi tez hududlarga yo‘naltirayotganini anglatadi. Toshkent viloyati, Samarqand va Farg‘ona kabi hududlardagi yuqori ko‘rsatkichlar, ushbu mintaqalarda xususiy mulkchilikning an‘anaviy va institutsional jihatdan chuqurroq ildiz otganidan dalolat beradi. Biroq, Sirdaryo (11,2 ming) va Jizzax (16,6 ming) kabi hududlardagi past ko‘rsatkichlar, bu yerda mulkchilik munosabatlarini rag‘batlantirish uchun "institutsional rag‘batlar" (soliq imtiyozlari, maxsus iqtisodiy zonalar) hali ham yetarli emasligini ko‘rsatadi.

3-jadval

Hududlar kesimida faol kichik korxona va mikrofirmalar soni

Hudud	Faol kichik korxona va mikrofirmalar, dona	Hudud	Faol kichik korxona va mikrofirmalar, dona
Toshkent sh.	87500	Xorazm vil.	23854
Toshkent vil.	38953	Namangan vil.	23136
Samarqand vil.	37398	Qoraqalpog‘iston R.	22066
Farg‘ona vil.	36238	Surxondaryo vil.	20589
Qashqadaryo vil.	27980	Navoiy vil.	19539
Buxoro vil.	27594	Jizzax vil.	16677
Andijon vil.	24381	Sirdaryo vil.	11217

Kichik biznesning hududiy konsentratsiyasi – bu mulkchilik munosabatlari transformatsiyasining "fazoviy aksi"dir. Mulkdorlar faqat huquqiy kafolat emas, balki infratuzilmaviy qulaylik va logistik samaradorlik mavjud bo‘lgan hududlarda biznes yuritishni afzal ko‘rmoqda. Demak, mulkchilikni rivojlantirish omili sifatida faqat huquqiy baza emas, balki hududlar o‘rtasidagi "infratuzilmaviy tengsizlikni qisqartirish" strategiyasi muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekistonda mulkchilik munosabatlarining transformatsiyasi tadbirkorlikni rivojlantirishning institutsional asosi bo‘lib, u iqtisodiy o‘sishning sifat jihatdan yangi bosqichiga o‘tishini ta‘minlamoqda. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, mulkchilik munosabatlari transformatsiyasi quyidagi uch yo‘nalishda namoyon bo‘lmoqda:

1. Institutsional seleksiya va korxonalar demografiyasi. 2021–2025 yillardagi korxonalar demografiyasi tahlili mulkchilik munosabatlarida "institutsional tozalanish" jarayoni kechganini tasdiqlaydi. Faol korxonalar sonining bozor talablariga moslashuvi (optimallasuvi) mulkdorlarning "samarali mulkdor" modeliga o‘tayotganidan dalolat beradi. Kichik biznesning jami faol korxonalar tarkibidagi 85 % lik ulushi uning resurslarni "yutuvchi va taqsimlovchi" asosiy institutsional subyektga aylanganini ko‘rsatadi.

2. Investitsion faollik va kapital modernizatsiyasi. Mulchilikning xususiy shakliga o‘tish jarayoni investitsion faollikda o‘z aksini topdi. Asosiy kapitalga investitsiyalardagi kichik biznes ulushining 60,9 % gacha o‘sishi – mulkdorlarning ishlab chiqarish vositalariga bo‘lgan ishonchi va o‘z resurslarini modernizatsiyaga yo‘naltirishga tayyorligini bildiradi. Bu – "kapitalning demokratlashuvi" jarayoni bo‘lib, davlat mulkidan xususiy investitsion tashabbusga o‘tishning yaqqol natijasidir.

3. Hududiy-fazoviy nomutanosiblik va institutsional yondashuv. Hududlar kesimidagi konsentratsiya (Toshkent shahri va viloyatlari) mulkchilik munosabatlarining rivojlanishi bevosita aglomeratsiya effektlari va infratuzilmaviy ta‘minotga bog‘liq ekanligini fosh etadi. Sirdaryo, Jizzax kabi hududlardagi past ko‘rsatkichlar mulkchilikka oid islohotlarni "hududiy-differensiyalangan" yondashuv asosida amalga oshirish zaruratini keltirib chiqaradi.

4. Xususiy sektorning YaIM va sanoatdagi ulushining o‘sishi mulkchilik huquqlarining xususiy sektor foydasiga qayta taqsimlanishi yakunlanayotganini, endilikda asosiy e‘tibor "mulkdorlar samaradorligi"ga qaratilishi kerakligini ko‘rsatadi.

Tahlil xulosalaridan kelib chiqib, quyidagi tavsiyalarni berib o‘tamiz:

- mulkchilik munosabatlarini yanada transformatsiya qilish uchun "davlat-xususiy sheriklik" (dxsh) mexanizmlaridan "xususiy-xususiy hamkorlik" (xxh) klasterlariga o‘tish zarur;
- mulkchilik munosabatlarini rivojlantirishning keyingi bosqichi – "mulkdorlar himoyasining institutsional mexanizmlari"ni (sud-huquq tizimi, korporativ boshqaruv) yanada kuchaytirishdir. chunki mulk soni (tadbirkorlar soni) ko‘paygani sari, mulk huquqini himoya qilish sifati ham shunchalik yuqori bo‘lishi kerak;
- xususiy sektorning yaim va sanoatdagi ulushining o‘ssishi endilikda asosiy e’tibor "mulkdorlar samaradorligi"ga qaratilishi kerak;
- xususiy sektorda mehnatni himoya qilish va malakani oshirish bo‘yicha "yangi institutsional talablar"ni ishlab chiqish zarurligini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abduraxmonov A.S. O‘zbekistonda xususiy mulkchilikning shakllanishi // Journal of marketing, business and management. Volume 2, issue 5, 2022.
2. Bozorboyev D.P. O‘zbekistonda davlat mulkini xususiylashtirishning bosqichlari.// Journal of Contemporary World Studies, volume 3, issue 5, june 2025.
3. Ismailova N.K. Tadbirkorlik subyektlarida korporativ boshqaruv: mulkchilik munosabatlari va samaradorlik. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar ilmiy elektron jurnali, 11(2), 2023. 55–63.
4. Котова В.В. К вопросу о трансформации собственности в современных условиях // Актуальные вопросы экономики и управления: материалы I Междунар. науч. конф. (г. Москва, апрель 2011 г.). — Москва : РИОР, 2011. — С. 12-14.
5. Экономика [Текст] : учеб. пособие / Под ред. А.С. Булатова. — М: БЕК, 1994.
6. Ульянов Г.В. Собственность и экономические организации [Текст] : Монография. — Иваново: ИВГУ, Ковров: КГТА; — 2001. – 256 с.
7. Xamdamov A.A. (2021). O‘zbekiston iqtisodiyotida mulkchilik shakllarining evolyutsiyasi va tadbirkorlik muhiti. — T.: Moliya nashriyoti.
8. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlari.